

**AXSIKENT TUMANINING TURIZM SALOHIYATI**  
**УПРАВЛЕНИЕ ТУРИЗМА АКСИКЕНТСКОГО РАЙОНА**  
**TOURISM AUTHORITY OF AXISKENT DISTRICT**

**Maksudova Shahlo,**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada Namangan viloyati va Axsikent tumani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Namangan viloyatining qadimigi tarixi va turizmi haqida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Namangan viloyatining statistik ko'rsatkichlari ko'rsatilgan. Namangan viloyati Axsikent tumanida turizm sohasini rivojlantirish uchun maqsadli yechimlar berilgan. Shuningdek, Namangan viloyati turizmini rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, iqtisod, ziyoratgoh, tarix, sayyoh, gastronomik, ekskursiya.

**KIRISH**

Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasining rivojlanishi butun dunyoning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi va ba'zi mamlakatlarning asosiy daromad manbayiga aylandi

Turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, ish o'rinlari yaratishga, investitsiyalarni jalb qilishga, valyuta tushumlarining o'sishiga va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga xizmat qilmoqda, mahalliy aholiga qo'shimcha daromad keltirmoqda, hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, madaniy va tabiiy merosni asrab-avaylash, mahalliy va kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashmoqda.

Hozirgi vaqtda Namangan viloyati juda ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Namangan viloyatida turizm obyektlari soni 301 tani tashkil etadi. 24 ta ziyoratgoh, 242 ta madaniy meros obyekti, 152 ta arxeologiya yodgorligi, 98 ta arxitektura yodgorligi, 22 ta istirohat bog'lari shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtda Namangan viloyatida 28 ta tur operator, 4 ta direksiya, 25 ta mehmonxona va 48 ta mehmon uyi (2013 o'rin), jami 78 ta joylashtirish vositasi, 40 ta mikroavtobus, 6 ta gid-tarjimon mahalliy va xorijiy fuqarolarga sayyohlik xizmatlari tashkil qilingan. Sohada 1900 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. 2020-yil davomida xorijiy va mahalliy turistlar uchun 5 ta turizm axborot markazi, 70 ta namunaviy sanitariya-gigiyena shoxobchasi, 40 ta turistik obyektiga olib boruvchi yo'l ko'rsatgich belgilari tashkil qilindi[1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Namangan viloyati boy sayyohlik salohiyatiga egadir. Bu yerda uning turistik diqqatga sazovor joylar juda ko'pdir. Namangan viloyati go'zal tog'lar va qo'riqxonalar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerda ekologik, gastrnomik, ziyorat rivojlangan. Namangan viloyati ekskursiyalar uchun ideal joy hisoblanadi.

Namangan viloyati o'zining qadimiyligi va turizmga juda katta o'rinni egallaydi. Namangan viloyatining hozirgi vaqtda eng ko'p turistlarni jalb etib kelmoqda. Namangan viloyatining Axsikent tumanida juda ko'plab tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylar ko'pdir. Bu maskanlar mintaqaning boy tarixi va madaniyati bilan tanishish uchun noyob imkoniyatlarni yaratadi.

Namanganning To'raqo'rg'onida bir tepalik bor. Bu tepalikda eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan Axsikent shahrining xarobalari yotadi. Ochiq osmon ostida joylashgan muzeyga aylantirilgan bu qadimiy shahar xarobalarini tomosha qilib, o'tmishga sayohat qilasiz. Yoshi jihatidan Afrosiyobga tenglashtirilgan, "Farg'ona Afrosiyobi" nomini olgan Axsikent tarixi yillar davomida o'rganilib kelinsa-da, u qadar ko'p e'tibor qaratilmagan. 2017-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifidan so'ng bir paytlar maydoni 400 gektarga yaqin, aholisi esa 200 mingdan ziyod bo'lgan "megapolis" shahriga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan.

Yozma manbalarining guvohlik berishicha, Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi poytaxt va shahari, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri Axsikent o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutib, juda ko'p saltanatlar uchun poytaxt vazifasini o'tagan. Axsikentda tayyorlangan qurollar "Damashq qilichlari" nomi bilan dunyoga mashhur bo'lib, G'arbda Damashq, Sharqda Xitoy bozorlarida sotilgan

Shuningdek, Namangan viloyati Axsikent tumanida o'zining kulolchilik, kashtachilik va gilamdo'zlik ustalari bilan mashhur hisoblanadi. Sayyohlar mahalliy ustaxonalarga tashrif buyurishlari va ushbu noyob hunarmandchilik buyumlarini yaratish jarayoni bilan tanishishlari mumkin. Sayyohlar milliy an'analar, oshxonalarini o'rganish, festival va marosimlarda qatnashish orqali mahalliy madaniyatga sho'ng'ishlari mumkin.

Namangan viloyati boshqa viloyatlardan ajralib turadigan jihati ham shundaki, viloyat oltin, uran, xrom, ko'mir va boshqa foydali qazilmalarga boydir. Bu eko va tog' turizmini rivojlantirish, shuningdek, hududga investitsiyalarni jalb qilish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

## NATIJAR VA MUHOKAMALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021-yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi”, deb ta’kidladilar. Ushbu strategik masalani keng qamrovda hal qilish, mamlakatimizda yetarli bo‘lgan resurslardan oqilona foydalanish, barcha zaruriy salohiyatlarni ishga solishi, buning uchun esa yetarli investitsiyalarni jalb qilishi zarur.

Namangan viloyati boshqa viloyatlardan ajralib turadigan jihati ham shundaki, viloyat oltin, uran, xrom, ko‘mir va boshqa foydali qazilmalarga boydir. Bu eko va tog‘ turizmni rivojlantirish, shuningdek, hududga investitsiyalarni jalb qilish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Namangan viloyatiga Rossiya va boshqa bir qator davlatlardan 1,5 millionga yaqin sayyohlar jalb etiladi. Bu bo‘yicha “Ipak yo‘lida turizm” 27-Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida kelishuvlarga [erishildi](#).

“Ipak yo‘lida turizm” 27-Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida Namangan viloyatining eko turizm, ziyorat turizm, gastronomik turizm, turistik dam olish maskanlari, ko‘ngil ochar maskanlari, ekstremal turizm obyektlariga investitsiya kiritish bo‘yicha kelishuvlariga erishildi.

Unga ko‘ra, 2023-yilning yanvar oyidan boshlab viloyatga Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Koreya, Malayziya, Ozarbayjon va boshqa davlatlardan sayyohlar jalb etiladi[2].

Joriy yilda sayyohlarni yana-da ko‘proq jalb etish maqsadida 10 dan ortiq tadbirlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Xususan, “Non festivali” bayrami doirasida yurtimizda ilk bora barcha non turlari tayyorlanib, xorijiy va mahalliy turistlarga havola qilinadi. Shuningdek, Navro‘z umumxalq bayrami doirasida 7 tonnalik sumalak tayyorlanadi, Namangan shahrida may oyida 60-yubiley “Gullar festivali”ni o‘tkaziladi va mazkur tadbirda chet ellik gulchilar hamda sayyohlar ishtirok etishi kutilmoqda.

Gastronomik turizmni yana-da rivojlantirish maqsadida Namangan shahrining markazida (“Afsonalar vodiysi” bog‘ida) “Taste of Uzbekistan” gastronomik festivalini, Chust tumanida “Osh festivali”ni, Xalqaro velosiped kuniga bag‘ishlab “Tungi velosayr” tadbirini tashkil etish rejalari ham bor.

Shuningdek, Namangan viloyatida ichki turizmni rivojlantirish uchun 13 ming nafar “Temir daftar”ga kiritilgan ayollarning viloyat ichida hamda 332 ming nafar sayyohlarning boshqa hududlardan viloyatga tashrifi tashkillashtirildi.



## XULOSA

Bugungi kunda turizmni rivojlantirishda Namangan viloyati yetakchi o'rinni egallaydi. Namangan viloyati o'zining buyuk mutafakkirlari, betakror madaniy meroslari, muqaddas qadamjolari bilan dunyoga mashhur bo'lgan qadimiy shaharlardan biridir.

Namangan viloyatining turizm salohiyatini to'liq ochish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish, turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish va targ'ib qilish, sayyohlarni qabul qilish va joylashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Viloyat tabiati va madaniy merosini asrab-avaylash, sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishga qodir malakali kadrlar va infratuzilmani rivojlantirish muhim omil bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, viloyatning turizm salohiyatini oshirish, sohada yangi loyihalarni amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2021-2023-yillar uchun dastur ishlab chiqildi. Mazkur dasturga 167 ta loyiha kiritilgan bo'lib, bularning barchasi turizm sohasida xizmatlar hajmini va sifatini oshirish, yalpi hududiy mahsulotdagi turizmning ulushini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

**Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, turistik xizmatlarni reklama qilish, iste'molchilar bilan doimiy aloqani ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mamlakatimizda quyi darajada bo'lib, ulardan foydalanishni oshirish turistik xizmatlar bozori barqarorligini hamda rivojlanishini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.**

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://yuz.uz/uz/news/namanganning-yuksalayotgan-turizm-salohiyatiiqtisodiyot-rivojida-ham-muhim-orinni-egallaydi>
2. <https://oz.sputniknews.uz/20221207/kelasi-yildan-namangan-viloyatiga-rossiyadan-sayyohlar-jalb-etiladi-30545568.html>
3. Shahlo, Maksudova. "GASTRONOMIK TURIZMNING O'ZBEKISTONDAGI AHAMIYATI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 26.1 (2023): 34-37.
4. Abdurakhmanova, Gulnora Kalandarovna, et al. "TOURISM 4.0: OPPORTUNITIES FOR APPLYING INDUSTRY 4.0 TECHNOLOGIES IN TOURISM." Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2022.
5. Максудова, Шахло, and Гулнора Гулямова. "ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ШАКЛЛАРИ." World of Science 6.4 (2023): 246-250.